

**Banklararo pul bozorining UZONIA indeksini
(Uzbek OverNight Index Average)
hisoblash va e'lon qilish
METODOLOGIYASI**

I. Kirish

Ushbu metodologiya banklararo ta'minlangan pul bozorida milliy valyutada overnayt shartlarida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha UZONIA foiz stavkasi va UZONIA indeksini hisoblash va e'lon qilish tartibini belgilaydi.

UZONIA foiz stavkasi banklararo pul bozorida tijorat banklarining milliy valyutada o'zaro likvidlik taqdim etish va jalb qilish operatsiyalarini amalga oshirishda kredit, likvidlik va boshqa xatarlar minimal bo'lgan overnayt foiz stavkalarining o'rtacha darajasini o'zida ifoda etadi. Shuningdek, UZONIA milliy valyutadagi o'zgaruvchan foiz stavkali moliyaviy instrumentlar uchun asosiy ko'rsatkich sifatida ishlatilishi mumkin.

UZONIA foiz stavkasi mazkur metodologiya asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) tomonidan hisoblanadi va e'lon qilib boriladi.

II. Asosiy tushunchalar

1. Ushbu metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

UZONIA (Uzbek OverNight Index Average) foiz stavkasi – banklararo ta'minlangan pul bozorida tijorat banklari o'rtasida davlat qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan milliy valyutadagi overnayt REPO operatsiyalari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi;

UZONIA indeksi – 1 so'mlik birlik uchun belgilangan baza davridan boshlab har bir kunlik UZONIA foiz stavkalarini inobatga olgan holda kapitalizatsiya qilish orqali hisoblangan ko'rsatkich;

Muddatli UZONIA foiz stavkalari – pul mablag'larining ma'lum muddat uchun UZONIA foiz stavkasi asosida hisoblangan daromadlilik ko'rsatkichlari;

Pul bozori ishchi guruhi – pul bozorini takomillashtirish bo'yicha Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda tashkil etilgan hamda Markaziy bank va barcha tijorat banklari vakillarini o'z ichiga olgan ishchi guruh.

III. UZONIA foiz stavkasi va UZONIA indeksini hisoblash tartibi

2. UZONIA foiz stavkasi O'zbekiston respublika valyuta birjasining "Banklararo pul bozoridagi elektron savdo platformasi"da tijorat banklari o'rtasida davlat qimmatli qog'ozlari bilan kun davomida hisob-kitoblari T_0 rejimida amalga oshirilgan overnayt REPO operatsiyalari bo'yicha hisoblanadi.

3. UZONIA foiz stavkasini hisoblashda ma'lumotlardagi reprezentativlikni saqlab qolish va taqsimotning o'rta qismidagi foizlarni aks ettirish uchun eng yuqori va eng past foiz stavkali operatsiyalar chegiriladi.

Bunda, xalqaro tajribadan kelib chiqib, 10 foizlik vaznga ega eng yuqori va 10 foizlik vaznga ega eng past foiz stavkalarda amalga oshirilgan operatsiyalar hisoblash bazasidan chegirilib, qolgan 80 foiz vazn bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hisoblanadi.

4. UZONIA foiz stavkasini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kun davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar foiz stavkalari (R) bo'yicha o'suvchi ketma-ketlikda joylashtiriladi;

b) har bir unikal darajadagi foiz stavka (R_i) bo'yicha operatsiyalar hajmlari umumlashtirilib, kompozit vazn (V_i) hisoblanadi ($i \in 1, \dots, n$, bunda n unikal darajadagi foiz stavkalari soni).

d) kompozit vaznlar yig'indisi (F) hisoblanadi:

$$F = \sum_{i=1}^n V_i,$$

e) kompozit vaznlar yig'indisining (F) 10 foizi miqdoridagi eng yuqori va 10 foiz miqdoridagi eng past foiz stavkalarining kompozit vaznlari hisoblash bazasidan chegiriladi;

f) UZONIA foiz stavkasi hisoblash bazasida qolgan 80 foizlik chegirilgan kompozit vazn bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi sifatida quyidagi formulaga binoan hisoblanadi:

$$UZONIA = \frac{\sum_{i=1}^k (R_i * V_i)}{\sum_{i=1}^k (V_i)},$$

bunda:

k – hisoblash bazasida chegirilgan kompozit vazndagi unikal darajadagi foiz stavkalari soni ($k \leq n$).

5. UZONIA foiz stavkasini hisoblash uchun bank ish kunida operatsiyalar soni **5 tadan** hamda bitimlar umumiy hajmi **500 mlrd so‘mdan** kam bo‘lmagan overnait REPO operatsiyalarining amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

6. Banklararo REPO bozorida bank ish kunida amalga oshirilgan operatsiyalar soni va hajmi mazkur metodologiyaning 5-bandida belgilangan shartlarni qanoatlantirmagan hollarda UZONIA foiz stavkasini hisoblash bazasi quyidagicha hisoblanadi:

- bank ish kunida banklararo pul bozorida amalga oshirilgan overnait depozit operatsiyalarining “80 foizlik chegirilgan” kompozit vazni UZONIA foiz stavkasini hisoblash bazasiga qo‘shiladi;

- agar hisoblash bazasiga qo‘shilgan banklararo REPO hamda depozit operatsiyalari umumiy hajmi 500 mlrd so‘mdan kam bo‘lsa, bank ish kunidagi Markaziy bank overnait depozit operatsiyalarining 10 foiziga teng kompozit vazni UZONIA foiz stavkasini hisoblash bazasiga qo‘shiladi. Bunda Markaziy bankning overnait depozit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkasi so‘nggi 5 bank ish kunida e‘lon qilingan UZONIA foiz stavkalarining Markaziy bank asosiy stavkasi bilan o‘rtacha tafovutini Markaziy bankning amaldagi asosiy stavkasiga qo‘shish orqali aniqlanadi.

7. Agar 6-banddagi amallar ketma-ketligi bajarilgan taqdirda ham hisoblash bazasidagi hajm 500 mlrd so‘mdan kam bo‘lsa, unda UZONIA foiz stavkasi so‘nggi 5 bank ish kunida e‘lon qilingan UZONIA foiz stavkalarining Markaziy bank asosiy stavkasi bilan o‘rtacha tafovutidan foydalangan holda, quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$UZONIA_t = P_t + \frac{\sum_{i=t-5}^{t-1} (UZONIA_i - P_i)}{5},$$

bunda:

t – bank ish kuni ($t-1$ – 1 kun avvalgi bank ish kuni),

P_t – t -kundagi Markaziy bank asosiy stavkasi,

$UZONIA_i$ – i -kundagi UZONIA foiz stavkasi,

P_i – i -kundagi Markaziy bank asosiy stavkasi.

Bunda UZONIA foiz stavkasi ketma-ket 5 bank ish kunida yuqoridagi formulaga binoan hisoblansa, kelgusi ish kunidan UZONIA foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasi darajasida belgilanadi.

8. Dam olish va bayram kunlari uchun so‘nggi bank ish kunidagi UZONIA foiz stavkasi amal qiladi.

9. UZONIA indeksini hisoblashning bazaviy davri sifatida 2022-yilning 5-yanvar sanasi belgilanadi. UZONIA indeksining qiymati ushbu sanada 100 ga teng bo‘lib, indeksning keyingi qiymatlari har bir kalendar kun uchun quyidagi formula asosida, yillik bazaviy davr – 365 kundan kelib chiqqan holda (actual/365 yil kunlarini hisoblash usuli) kapitalizatsiya ko‘rinishida hisoblab boriladi:

$$UZONIA indeks_{t} = UZONIA indeks_{t-1} * \left(1 + \frac{UZONIA_t * n_i}{365}\right)$$

bunda:

UZONIA indeks_t – hisob-kitob amalga oshirilayotgan kundagi UZONIA indeks ko‘rsatkichi;

UZONIA indeks_{t-1} – indeks hisoblanayotgan kundan oldingi kalendar kundagi UZONIA indeks ko‘rsatkichi;

UZONIA_t – indeks hisoblanayotgan kundagi UZONIA foiz stavkasi;

n_i - UZONIA_t amalga bo‘lgan kalendar kunlar soni (odatda 1 kun, hafta oxirida 3 kun va bayram kunlarida turlicha bo‘lishi mumkin).

10. Pul bozori ishtirokchilariga foydalanishda qulay bo‘lishi uchun Markaziy bank tomonidan UZONIA foiz stavkasidan tashqari muddatli UZONIA foiz stavkalari ham e‘lon qilib boriladi.

Muddatli UZONIA foiz stavkalari 7, 30, 90 va 180 kunlik muddatlarda hisoblanadi. Kelgusida bozor ishtirokchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib ushbu muddatli foiz stavkalari qatori o‘zgartirilishi mumkin.

Muddatli UZONIA foiz stavkalari quyidagi formula asosida har bir kalendar kun uchun UZONIA foiz stavkalarining kapitalizatsiya qilingan ko‘paytmasi ko‘rinishida hisoblanadi:

$$\text{Muddatli UZONIA} = \left[\prod_{i=t-0}^{t-d-1} \left(1 + \frac{UZONIA_i * n_i}{365} \right) - 1 \right] * \frac{365}{T},$$

bunda:

UZONIA_i – i bank ish kuni uchun hisoblangan UZONIA foiz stavkasi;

n_i - UZONIA_i amalda bo‘lgan kalendar kunlar soni (odatda 1 kun, hafta oxirida 3 kun va bayram kunlarida turlicha bo‘lishi mumkin);

d – davr ichidagi bank ish kunlari soni;

T – muddat davomidagi kalendar kunlar soni (7, 30, 90 yoki 180 kun).

11. Istalgan davr uchun muddatli UZONIA foiz stavkasini hisoblash quyidagi formulaga binoan amalga oshiriladi:

$$\text{Muddatli UZONIA}_{davr} = \left[\frac{\text{UZONIA indeksi}_{davr\ oxiri}}{\text{UZONIA indeksi}_{davr\ boshi}} - 1 \right] * \frac{365}{T}$$

bunda:

$\text{UZONIA indeksi}_{davr\ oxiri}$ – muddatli UZONIA hisoblanayotgan kundagi UZONIA indeksi;

$\text{UZONIA indeksi}_{davr\ boshi}$ – muddatli UZONIA hisoblanayotgan kundan T kalendar kun avval hisoblangan UZONIA indeksi;

T – muddatli UZONIA davri davomidagi kalendar kunlari soni.

IV. UZONIA foiz stavkalari va indeksining e‘lon qilinishi

12. UZONIA foiz stavkalari va UZONIA indeksi har bir bank ish kuni uchun bank ish kuni yakunlanganidan so‘ng Markaziy bank tomonidan hisoblanib, keyingi ish kuni soat 10:00 ga qadar Markaziy bankning rasmiy veb-sayti, telegram kanali va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilinadi.

13. UZONIA foiz stavkalari va UZONIA indeksi hisob-kitoblarida aniqlik va qulaylikni oshirish maqsadida verguldan keyin 4 ta raqam aniqlikda e‘lon qilinadi.

14. Mazkur ko‘rsatkichlar rasman e‘lon qilinganidan keyin haqiqiy hisoblanadi hamda o‘zgartirish va (yoki) tuzatish kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar hisob-kitob jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolik 0,05 foiz banddan yuqori bo‘lsa, Markaziy bank tomonidan “tuzatilgan” UZONIA foiz stavkalari va indeksi keyingi ish kuni davomida qaytadan e‘lon qilinadi.

15. Monetar operatsiyalar departamenti UZONIA foiz stavkalari va UZONIA indeksining hisoblanishi va e‘lon qilinishi uchun mas’ul bo‘lib, zaruratdan kelib chiqqan holda ma’lumotlarni LSEG Workspace, Bloomberg yoki boshqa xorijiy statistik-axborot platformalarida e‘lon qilib borilishini ta’minlaydi.

V. Mazkur metodologiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

16. Pul bozorida UZONIA foiz stavkasining samaradorligini oshirish, xususan uning banklararo pul bozoridagi real vaziyatni ifodalashini hamda foydalanuvchilar manfaatini to'g'ri aks ettirishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank ushbu metodologiyani doimiy ravishda va kamida yilda 1 marotaba qayta ko'rib chiqadi.

Bunda, kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Pul bozori ishchi guruhida atroflicha muhokama etiladi va muhokama natijalari Markaziy bankning Kredit qo'mitasiga kiritiladi.

17. Mazkur Metodologiyaga o'zgartirishlar kiritish Markaziy bank boshqaruvi qarori bilan amalga oshirilib, o'zgartirishlar qarorda belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.